

...odamlar qaynagan katta shaharda odamlarni sog'inib yursang. Shavkat Rahmon

Bir ajib hol: mish-mishlarga boqsam, chevrada ko'zga ilinarli odam qolmabdi. Tasavvur qilyapsizmi, odam yo'q! Suv bo'lmasa, qurg'oqchilik bo'ladi, narsa bo'lmasa, yo'qchilik bo'ladi, pul bo'lmasa, kambag'alchilik bo'ladi, yemak bo'lmasa, ocharchilik bo'ladi, Odam bo'lmasa-chi?!

Hamma narsa bor, odam yo'q... bor-yo'g'i to'rttagina tovushdan tuzilgan shu sirli so'z (ODAM)ni og'iz to'ldirib aytishga iymanadigan bo'lib qoldi kishi o'zi yo'q narsani qanday aytasiz, axir?!

Bir akamiz hikoya yozibdilar. Qahramonlari qanot bog'lab butun shahar uzra uchib chiqadi, bironqa odamni ko'rmaydi! Ko'chalar huvillagan, u yer-bu yerda qog'ozlar, lattalar, suvqog'oz parchalari uchib yuribdi... Binolar o'mida turibdi, daraxtlar joyida o'syapti, hammayoqda hayot izi bor, ammo shu hayotning gultoji bo'lgan odam yo'q! Hech qaerda! Hatto o'sha hikoyaning o'zini o'qiydigan va qadriga yetadigan kimsa topilsa-chi...

Ikkinchisiz bir o'rtog'imiz yozishicha, yerbetida kechayotgan yoqimsiz ishlardan bezgan bittasi yumronqoziqqa o'xshab o'ra kavlab, yertagiga kirib ketgan emish. O'shangayam, mana, o'n yillardan oshibdi, lekin nimaga yertagiga kirib ketganini odam bo'lib munda-ay tushuntirmas ham emish. Yaqinlari yalinishibdi, yolborishibdi, hech kimga qulq solmabdi, o'taga Hurmatli Kishilarni ham qo'yishibdi, yo'q, sira yerbetiga chiqmas emish. Ha? (desangiz,) Akam chilla o'tirgan emishlar.

Bekor gap, bu o'rtoq yo bizni ovsar deb o'laydi, yo tuppa-tuzuk esli-hushli to'plamni chalg'itmoqchi uning ishi chilla emas, aniq chilla emas! Chilla bunaqa cho'zilmaydi, chilla qirq kun kechadi, U odam yertagiga kirib ketganiga o'nyillardan oshibdimi, bu yerda boshqa bir gap bor mana sizga chuvalangan kalava! Ilmiy tashkilot (IT)lar qayoqqa qarayapti o'zi? Og'izlarini ohib o'tiravermasdan B€' tomoqlariga kepakchivin kirib ketadi! B€' kalavaning uchini axtarishsa bo'lardi!

Boshqa bitta hikoyada bir tentak Qishloq etagidagi kulbasini o'ziga go'r qilib olib, yuvinchsiz-kafansiz kirib ketganimish. Shu kirib ketganicha, Qishloq uni esidan ham chiqarib yuborganimish...

Biri biridan sirli, biri biridan qo'rqinchli mish-mishlar... Bu mish-mishlar nima demoqchi o'zi? Yerbetida odam zoti qirilib bitdi: kimlardir chilla bahona yertagini makon tutgan nimalarnidir kutib pusi-ib yotibdi; yana boshqalari hovli-uylarini mozorga aylantirib, tiriklay go'rga kirib ketgan qiyomatni poyleyapti... demoqchimi?

Oolloh-Oolloh, odamlarga nima bo'lgan o'zi? Yerbeti nimaga torlik qilib qoldi? Yuragi nega siqilyapti? Ko'ngli nimalarni tusamoqda? O'tayotgan kuniga rozi bo'lib, dumini yig'ishtiri-ib yashayvermaydimi?

Qanday yaxshiydi, yurgan edi odamlar tirikchilagini qili-ib... shaharlar gavjum edi, igna tashlasang yerga tushmasidi (Nabi yozuvchi aytishicha, yerga tushmasligiga sabab rizq axtarib yurgan birontasi u ignani shartta ilib olib, o'sha zahoti uyiga surib yuborarmish).

Unday desak, ko'cha to'lal yurganlar kim? Bular odam bo'lmasa, odam qani? Ularni ko'rmayapmizmi yo ikki oyoqli inson mustaqil tur sifatida chindanam yo'qolib ketdimi? Yo'q. Ana, yuribdi odamga o'xshab. Tepadan igna tashlab ko'ring-a...

O'zi yozuvchi xalqi g'irt qitmir bo'ladi, xuddi boshqa mavzu qurib ketgandek yo yozadigan gapi qolmagandek, yo'q yerdan masala chiqarib yuradi. Gapni qarang: chevrada pichoqqa yararli butun odam qolmagan emish. Qo'yib bersangiz, topsayu pichoqqa yaratvorsa. Butuni bo'lmasa ham, yarimtalari yuribdi-ku, deydigan erkak yo'q.

Xullas, bu hikoyalaru bu mish-mishlar bir kuni jonga qattiq tegdi. Ishni o'zim o'rganmoqchi, o'rganib, tagiga o'zim yetmoqchi bo'ldim. Oyoqqa shippakni ildimu shartta ko'chaga otildim.

(Aslida, kalava uchini o'tirgan chillaxonamda yoki yotgan go'rimda axtarsam ham bo'laverardi, nega deganda, odamsiz ko'chada menga nima bor. Lekin bu o'rinda ko'chaga chiqish holati muhim, unga alohida urg'u berilgani shundan B€' oyoqqa shippakni ilishda va ko'chaga shartta otilishda shiddat va jonkuyarlik bo'rtib ko'rindi. Holat qancha bo'rttirilsa, shuncha qiziq. Uzr.)

Shunday qilib, ko'chada...

...ahvol o'sha-o'sha g'ij-g'ij kimsa, tiqilinch... hamma qayoqqadir shoshadi, yeladi-yuguradi, g'ovur-g'uvur qiladi, ammo birov-birovga qaramaydi, birov-birovni tanimaydi, turtinib yiqilib tushsangiz, tapir-tupur bosib ketaveradi, odammisiz demaydi, ko'zlar olazarak, kimningdir tepadan to'satdan igna tashlab qolishini poyleydimi yo? Har ehtimolga qarshi oyog'i tagiga qarab yuradi, nimanidir axtaradi.

Bular kim? Qo'ymasdir, baliqmasdir, axir! Aytmoqchi, bu g'ij-g'ijlik "kim?" so'rog'iga javob bo'ladimi, "nima?" so'rog'iga javob bo'ladimi? Bu gavjumlik kimlardanmi, nimalardanmi hosil bo'lgan?

Katta yo'l bo'yida, bu jumboq tagiga yetolmay, garangsib turgan pallangiz boshiga aylanma chiroq qo'ndirib, beliga beldamcha bo'yoq tortgan allambalo moshin shovqin-suron bilan o'tib qoladi. Karnayi olamga g'ulg'ula solib, o'shqiradi:

B€' O'n oltiyu ellik to'qqiz, tez yo'lni bo'shat! Senga aytayman!!! Piyodalar, senlar ham ko'zdan yo'qollaring, hozir bu yerdan Bozorqo'm o'tadilar!..

Savolningizga javob darrov chiqaqoladi: ha, bular "o'n oltiyu ellik to'qqiz"lar, "piyodalar", "bozorqo'mlar" ekan, deysiz.

Deysiz-da, g'alvadan uzoqroq turish uchun shosha-pisha duch kelgan darvozaga o'zingizni urasiz. Yengil nafas olasiz. Bir oz hushingizga kelganingizdan keyin tevaragingizga qaraysiz. Qarasangiz, haligi Bozorqo'mning bozoriga kirib qolgan bo'lasiz. Do'kon qatorlari ham, maydonlar ham gavjum. Hamma odamga o'xshaydi, lekin hech biri ikkinchisini odam o'laroq yo'qlamaydi: biri oluvchi, biri sotuvchi, biri choychi, boshqasi pattachi, o'ttada arava tortuvchilar ham bor. Baqirgani baqirgan:

B€' Hoy kalla, nari tur!

B€' Hoy salla, beri tur!

B€' Ko'zingga qarasang o'lasanmi, mol?!

B€' Po'-o'sh, arava!

B€' Qo-och, arava!..

Va hokazo. Odammas u, arava u, mol u, kalla u, salla u...

Jig'ibiyron bo'la boshlasangiz, zumda tepangizda odmiroq kiyinib olgan Bittasi qiyshayib paydo bo'ladi:

B€' Ha, tinchlikmi? deydi ko'p ma'noli o'grayib. Ma'muriyatga tegishli panjaralari bir eshikni ko'rsatib, im qoqadi.

Bozorqo'mning bu xosxonasi qanaqa xona ekани va bu odmi kiyining Bittasi sizni nimaga u yoqqa taklif etayotganini anglamagan bo'lsangiz-da, negadir o'takangiz yorilay deydi, yuragingiz hovut oladi. Es borida etakni yig'ishtirish lozimligini tushunib qolasiz va tez bozordan oyoqlarni uzasiz.

Endi boshimni qayoqqa suqsam ekan, deb hovliqib ketayotganingizda manglayiga "Do'xtirxona" yozuvi osilgan binoga ko'zingiz tushadi. Tomiringizni ushlab ko'rsangiz, yurak urishingiz chatoq... yo'q, urmayapti, choptirilgan qo'qonarava g'ildiragiday dukirlab yotibdi! Qafasini yorib chiqay deydi. Jon halpidi ichkari otilasiz.

Eshik tagida bir qorovul kampir o'tiribdi. Yoshi to'qsonlarning nari-berisida. Qoqsuyak jasadiga oq xalat kiyib olgan. Shunchaki o'tirmayapti, o'ziga hokimiyat tegib qolganidan mast! kayfini suryapti:

Б€' Kimga keldingiz? Yo'qlar! Keyin kelasiz!

Б€' Sizga yo'l bo'lsin?

Б€' U yoqqamas, bu yoqqa!

Б€' Bu yoqqamas, u yoqqa!

Б€' O'tiring! Turing!.. deb yotibdi.

Sizning ham qarshingizdan to'sib chiqadi:

Б€' Hoy kasal, qayoqqa? deydi gupirib.

Dovdiraysiz.

Б€' Kasalmasman men, odamman, soppa-sog' odamman, Б€' deb g'o'dranasiz.

Qorovul kampir o'zinikidan qolmaydi:

Б€' Kasalsiz! Kasal bo'lmasangiz, betta nima qip yuribsiz?! deb do'q uradi.

Б€' Yurak do'xtiriga bir ko'rinoqchiydim... deyishga majbur bo'lasiz.

Б€' Ana, aytdim-ku, siz kasalsiz, jiddiy kasalsiz, sizning yuragingiz chatoq! deb kasalingizga aniq ot qo'yadi qorovul kampir.

Chorasizlikdan ko'naqolasiz:

Б€' Ha, kasalman, yuragim nimagadir tipirchilayapti, Б€' deysiz. Ixtiyorsiz ravishda tovushingiz yig'lamsirabroq chiqadi.

Kampir bir oz yumshaydi.

Б€' Bizda hamma kasal, sog'i yo'q, Б€' deydi dardingizga sherikligini bildirib.

"Siz ham sog' emassiz, momo! Sizning miyangizga qurt tushgan!" deb bir chimchilab olgingiz keladi-yu, chimchilashga ilinguday etning o'zi yo'q to'qson yoshli bu kampir qurg'urda.

Ha, momo ham yoshlidan katta bir dardga chalingani aniq, chalinganidayam birato'la og'ir mansab dardiga, uning ham ko'plarda uchraydigan yuqumlisiga chalingan. Havosi haliyam pasaymaganidan, bir zamonlar ulug'-ulug' dargohlarning mafkura bo'limlarida qandaydir yugurdak vazifasida ishlagani bilinadi. Rosa tirishganiga qaramay bo'yidan tepaga ko'tarila olmagan, keyin hoynahoy biron ta xotin-qizlar qo'mitasiga o'tib olib yoshini qaratgan. Aniq shunday! To'rtta xotinni u yoqqa yetaklab, oltitasini bu yoqqa yetaklab o'rganib qolgan emasmi, nafaqaga chiqqanidan keyin uyida yuragi siqilaverib, rosa mo'ljallagan-da, mana shu yerni topgan. Yaxshi-da, buyruq berib o'tiradi. Bu yerga keluvchi hamma uning buyrug'iغا bo'yinsunadi. Sho'rlik kasallar "Do'xtirxonaning eng kattasi shu bo'lsa kerak", deb o'laydi. O'zini tutishidan qoqsuyak egniga oq xalat tashlaganiga ham kamida o'ttiz-qirq yillar bo'lib qolgan-ov...

Hah, notavon ko'ngil-a! Bola-chaqaning rohatini ko'ri-ib, oyog'inи uzati-ib yotmaydimi uyida...

...deganingizdan foyda yo'q. Illojsiz ko'nasiz: "Menga nima?" deya qo'l siltaysizu kampir ko'rsatgan ikkinchi qavatga chiqasiz.

So'ng o'ngga Б€' yo'lakning o'rtalariga borasiz va chap tomondagи 7-xona eshigiga qaraysiz: "Yurak amaliyoti bo'limi" yozuvini o'qiyisz.

Amaliyot? Birdaniga-ya?

Kirsangiz, xuddi ko'ksingizni yorib, yuragingizni sug'urib olib tashlaydigandek vahmaga tushib, o'ylab ham o'tirmay orqaga qaytasiz.

Bularga ishonib bo'ladi? Bular uchun siz odammassiz, kasalsiz, kasallardan bittasisiz. Kerak bo'lsa, shartta yuragingizni oladi-da, o'niga yo'l chekkasidami, axlat qutisidami o'lib yotgan it yo mushukning buyragini qo'yib chiqarib yuboraveradi. Yo zanglagan qandaydir temirga almashtirib qo'yadi. Siznikini esa, duch kelgan biror chetellikka ko'kiga pullaydi...

E-e, yo'q, oshna, yurak hozircha o'zimizga ham kerak, deysizu qochasiz. Pastda yana darddoshingiz kampirga yo'liqasiz. Endi o'g'zini juplamoqchi bo'lib turganida o'zingizni eshikka urasiz. Sho'rlik mafkurachi-qo'mitachi kampir ortingizdan:

Б€' Uchrashdingizmi? Nima dedi? Bularning bittasigayam quloq solmang, o'rikning suvidan ichib yuring. Mana, menda bor, bir istakan ichib ketasizmi? Б€' deganicha qolaveradi.

Katta ko'chaga chiqib olgach, ichingizdan to'lib bir uf chiqadi. Yengil tortasiz. O'ngga yuraymikan, chapga yuraymikan, deb boshingiz qotib turganida ikki yoningizda ikkita azamat yigit paydo bo'ladi.

Б€' Ha-a, xuddi bonkani o'marib chiqqan o'g'riga o'xshab hansirab turibsan bu yerda? Б€' deydi bittasi siqib kelib.

Ikkinchisiga qaraysiz. Unisi ham xuddi shunday degandyay tuyuladi sizga. Yo ikkalasi bir paytda gapirdimikan? Harholda, bu so'zlar birvarakayiga ikkala qulog'ingizdan jaranglab kirganday bo'ladi. O'zingizni yig'ishtirib olib ulgurmasingizdan ikkala tomondan bir paytda ikkinchi gulduros tovush keladi:

Б€' Kimsan?!

Aytganday, shaharda odam zoti qirilib bitgan bo'lsa, unda men kimman? Bular kim? Nimaga duch kelgan Azamat duch kelgan kimsaning kimligini surishtirishi kerak?

Savollaringizga tezda javob topa olmaysiz, miyangiz sekin ishlaydi, umuman ishlamay qoladi miyangiz.

Б€' Yurgan bir odamman... Б€' deysiz nimagadir xijolat chekib.

Б€' Odammisan, yo'qmi Б€' tekshiramiz, aniqlaymiz! Б€' deydi Azamatlar. Oddiy gapniyam negadir do'q bilan gapiradi. Ketidan yana guldiratib: Б€' Ro'molchang bormi?! deb qoladi.

Obbo, ro'molchan ni ma qiladi? Nimaga yonimda albatta ro'molcha olib yurishim kerak?

Б€' Yo'g'idi, uydan shoshib chiqib kelaveribman, deysiz shalvirab. Keyin, mening burnim uncha-munchaga oqavermaydi, o'shangha ko'pincha ro'molcha olib yurmiyman, Б€' deysiz battar xijolat bo'lib.

Б€' Qanaqa odamliginingiyam, burning oqar-oqmasliginingiyam aniqlaymiz. Qani, oldimizga tush-chi!

Oldilariga tushishingizga zarurat qolmaydi Б€' ikki qo'lting'ingizdan olib, oyog'ingizni yerga tekkizdirib-tekkizdirmay dikonglatib, qayoqqadir surgalay boshlashadi. Yelkalarining zirqiraydi.

Б€' Hov, men sizlarga g'o'lamanmi, odamman axir! Б€' deb kimliginingizni bildirib qo'ymoqchi bo'lsangiz, biqiningiz muborak mushtlardan ikkitasini yeysi.

Б€' O'zingni bos, bo'lmasa, qarshilik ko'rsatdi, deb kerakli joyga topshirvoraman, enangdi ko'rib yotasan! Б€' deb o'dag'aylaydi bittasi... yo'q, ikkalasi.

Hartugul, olib borayotgan joylari yaqin ekan. Qattiq iskanjalaridan tezroq qutulasiz.

Б€' Ko'zlari joyida emas, shuhbali tuyuldi, uning ustiga cho'ntagida ro'molchasiyam yo'q. Burni oqmasimish, Б€' deb o'zlaridan 2 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

kattaroq boshqa Azamatga topshiradi ikkalasi.

Б€' Burni oqmaslik ayb sanalmasa kerak!.. deysiz o'zingizeha chiroyli lutf qildim deb o'ylab.

Katta Azamat kattaligidan tashqari, qo'ldan ham bergen ekan, gardaniningizga yomon bir musht tushadi.

Б€' Sen men bilan huquq talashyapsanmi?! Б€' deydi. So'ngra salmoqlanib o'rnidan tura boshlarkan, oyog'i tagiga bir so'kinadi-da, uzun esnaydi. Yaxshilikcha o'zing tan ol: burnoqmisan, sullohmisan na-amasan? deydi boshqacha bir huzur ila. Esnash chog'i ikki yonga kerilgan gurziday mushtlarini asta-sekin yuqoriga havolatib turib, har ehtimolga qarshi yana bir marta ikkala yelkangizga tushiradi.

Б€' Bitta ro'molchaga shunchami, ey odam?! Sizdiyam bola-chaqangiz bordir?! Б€' degan ma'nisiz hayqiriq chiqib ketadi og'zingizdan.

Б€' Men Azamatman, shunga oylik olaman! Sen esang, burnoqsan, tushundingmi?! Ustiga ustak, cho'ntagingda ro'molchang ham yo'q!

Urди Xudo! Burnoq emasligingizni, ro'molchan ni tasodifan olmay chiqqaningizni kimga va qanaqasiga isbotlay olasiz bunday bir pallada? Ko'chada lallayi-ib yuribsizmi, uning ustiga, qayoqqa yurayin ekan, deb ikkilanib turib qoldingizimi, kamiga cho'ntagingizda bir parcha latta ham yo'q Б€' qip-qizil burnoqligingizga bundan ortiq dalil bo'lmasa kerak!

Qo'rqib ketasiz. Bu yerdan tez qutulmasangiz, osmon ustidanmi, yer tagidanmi burnoq topib kelasan, deb ikkitasini ko'chaga chiqarib, o'shandan beri yo'l poylab-zerikib o'tirgan manavi Katta Azamat qo'ymi yo echkining ichak-chavog'ini bo'yningizga ilib qo'yishi hech gap emas.

Б€' O'rtoq Azamat aka, men tinchgina uyimda yotganidim, qaysi shamol surgalab ko'chaga olib chiqdi, bilmay qoldim. Chindanam burnim oqmaydi, burnim oqmasligini xohlagan do'xtiringiz tekshirib ko'raversin... Lekin ko'ngil tortganda araq-paraq ichib turaman, o'shanda burnimdan sal suv kelmasa, boshqa payt doim qup-quruq. Ishonmasangiz, qo'shnilarimdan birontasini chaqirib so'rang: men tozaman, hech kimga ziyonim yo'q, o'rtoq Azamat aka...

Aroqni eshitib Katta Azamatning ko'zlar ni namiqadi, ko'ngli yumshaydi.

Б€' Ziyoning bo'lmasa, turishingdan, foydang ham yo'qqa o'xshaydi sening, Б€' deydi nimalargadir ishora qilib. Б€' Masalan, doim o'zingni o'ylaysan, bizni hech o'ylamaysan!

Б€' Meni qo'yvoring, faqat sizni o'ylashga so'z beraman, o'rtoq Azamat aka!.. Aksiga olib, uydan quruq chiqibman.

Б€' Yo'q, seni endi shunday qo'yib yuborolmayman. Anovi ikkala Azamat nima deb o'laydi Б€' seni bergen, meni olgan deb o'laydi. Xatga tushdingmi, endi xat bilan chiqasan bettan, Б€' deydi-da, qayoqqadir sim qoqadi: Б€' Alo', idorami? Burnoqlardan bittasini qo'lga olganidik... Б€' deb gap boshlaydi-yu, davomini aytmay, darrov tilponni o'chiradi. Б€' Aytganday, o'zimizning ham do'xitrimiz bor, laqabi "Bakovul", bizda ekspert bo'lib ishlaydi. Oldin o'sha tekshirib ko'rsin, kuchi yetmasa, o'tkirrog'ini chaqiramiz.

So'ng boshqa raqamlarni teradi.

Bakovul og'a, bir kirib ketolmaysizmi?

Hayal o'tmay, xonaga ko'rkgina bir yigit kirib keladi. Kirasolib, osmondan tarasha tushganday:

Nima bu, ko'chalarda tentirab yuribsiz?! deydi ko'zingiz tubiga tikilib.

Tuyqus miyadan musht yegan kabi kalovlanasiz.

Tentirab yurganim yo'q... uya tinchgina o'tirganidim, nima palakat bosdiyu ko'chaga chiqib ketganimni bilmay qolibman... deysiz duduqlanib.

Soqol-chi? Soqol qo'yib olibsizmi?

Uka, tushunadigan odamga o'xshaysiz... deb g'udrana boshlasangiz, birdan Bakovul so'zingizning beliga bolta uradi:

"Uka" demang! Birinchidan, men ukangizmasman, ekspert-do'xtirman! Ikkinchidan, siz ham akammassiz, burnoqsiz, tushundingizmi, ro'molchangiz ham yo'q!

Kapalagingiz uchib ketadi

Bakovul aka, insof qiling... shu... men burnoqqa o'xshaymanmi, a, yaxshilab qarang, o'xshaymanmi?.. Faqat, bugun nimagadir ro'molcha olib chiqish esimdan chiqibdi, xolos. Soqol ham soqolmas, aytdim-ku, besh-olti kundan beri ko'chaga chiqmaganidim, betimni jun bosib ketdi.

Ha... deydi ekspert-do'xtir. Iyagini g'ijimlaydi. Bir sizga, bir Katta Azamatga qaraydi. Yana bir marta cho'zib "Ha-a" deydiyu: Rosa ayyor ekan, aniqlab bo'ljadi... Xullas, bu yog'i o'zingizga havola. Nima deydi: eti sizga, suyagi bizga, deb xonadan chiqib ketadi.

"Suyagingizning egasi"ga ortidan mo'litrab qarab qolasiz. "Etingizning egasi" esa, sizdan bir narsa chiqmasligiga ko'zi yetibmi, endi nima qilsam ekan, degan ma'noda jichcha o'ylanib qoladi. So'ng darrov hushyor tortadi:

Aslida, o'yanish bizga xosmas, biz lubboy ishni shartta hal qip qo'yaqolamiz, deydi o'zini oqlagannamo ohangda. Jichcha o'yanib ojizligini bildirib qo'yaniga xijolat chekadi. Ililingni qoqmoqchiydim-u... baxting bor ekan, bola, ekspert-do'xtirimiz sendan manqa topa olmadilar. Ammo-lekin arajni vaqtida eslatib qolding, bizning tilda u "spiritli ichimlik" deyiladi... Mayli, katta ekspert-do'xtirlarni ovora qilmay qo'yaqolay. Zuv chiq-da, qorangi o'chir! deydi ko'zidan olov purkab.

O'zi bugun omadingiz kepturibdi. Aniq! Bo'lmasa, bunaqa joydan birov bunaqa onson qutulib chiqqan emas! Tag'inam anavi Bakovul deganlari insofli do'xtir ekan, aniqlab bo'ljadi, dedi, boshqalar aniqlardi, burnida manqasi bo'lmasa ham, o'yab o'tirmasdan bor deb xulosa berardi. Ana undan keyin bu Azamatlarning hunarini ko'rardingiz... Xudo saqladi.

Endi tuyoqlar tez shiqillatilmasa bo'lmas. Nariroq borib, o'zni sal bosib, yaxshilab o'ylab olinadi Б€' nima qilish, qaerga borish o'shanda ma'lum bo'ladi.

Yana eski hol: o'ngga yuraymi, chapga yuraymi? Aytganday, uyingiz qaysi tomonda bo'lsa, o'sha yoqqa yurasiz-da. Lekin... uyingiz qayoqda?

Qaerga kelib qoldim o'zi, deb turganingizda qarshingizda bir moshina to'xtaydi.

Mijoz, tashlab qo'yaymi? deydi kirachi oynagidan boshini chiqarib.

Bunisi endi o'lganning ustiga tepgan deyiladi. Ajablanib qaraysiz. Shu kirachiga ham bir mijozsiz, xolos. Albatta, uyam nari borsa bir kirachi-da...

Xafsalangiz pir bo'ladi. Kirachiga javob ham qilmasdan, boshingiz oqqan tomonga burilasiz-da, yura... yo'q, sudrala boshlaysiz. Ko'nglingizdan, bir boshga bir kunda shuncha hodisa... ko'p emasmi, degan o'y kechadi. Piyoda bo'ldingiz, arava bo'ldingiz, kasal bo'ldingiz, burnoq bo'ldingiz, mana, mijoz ham bo'ldingiz, ammo odam bo'lmadingiz... Xo'rligingiz keladi, eziliblar ketasiz.

Gavda egik, bosh undan-da egik, ko'zlar yer chizadi; ikki qo'l cho'ntakda, oyoqlarni to'g'ri emas, chalishdirib tashlaysiz, go'yo tevarakda kimsa yo'q, bir o'zingizsiz; kimadir yelkangiz tegib ketganiga ham, u kimdir orqangizdan "Hov, ko'r!" deb haqarat qilganiga ham parvo qilmaysiz, bir o'ng tomonga, bir chap tomonga tish orasidan chirt etkazib tupuk uchirib qo'yasiz, siz dunyoni unutgansiz, dunyo sizni tanimaydi...

Ie, nega tanimaydi? Nega tanimasligi kerak? Men shu qadar hech kimmanmi? Mayli, otimni bilmisin, mayli, meni oldin hech qachon ko'rмаган bo'lsin, lekin odamman-ku! Odam odamni tanishi, odam odamga Odamga o'xshab muomala qilishi kerakmasmi?! Be' deysiz yig'laguday bo'lib.

Tuyqus turtinib, yomon munkiysiz, o'ylaringiz sochilib ketadi. Aspaldan ikki qarichcha qovurg'ali temir chiqib qolgan ekan. "E la'nati!" deb yuborasiz. La'natingiz shippagingizning bir tasmachasini uzib yuborgan temirgami yoki yo'lkaza aspalni pala-partish bosgan shaltoqi aspalchilargami atalganini o'ylab o'tirmaysiz, egasiga yetishidan ko'nglingiz to'q. Faqat, kayf-barakamni uchirib yubordi-ya, deb g'ashlanasiz. Nimani o'ylayotuvdim o'zi? Ha, odamlarni... Odamlar...

Yashashi qiziq bu odam bolasining: erta bilan turadi, bet-qo'lini yuvadi, unda-munda nonushta qilib, uyidan chiqadi. Qayoqqa boradi, borar yeri belgilimi, yo'lida to'g'ri ketyaptimi ko'p ham o'ylab o'tirmaydi. Ammo har kuni shu: erta-sahardan, bolam-chaqam deb, umid bilan, bir tishlam non topish ilinjida, ostoxona sakrab ko'chaga chiqadi nasibasini izlaydi. Birnima topsa, boshi ko'kda! Tez uyiga suroradi. Topmasa, qaytgisi kelmaydi, timirskilanib yuraveradi. Qaniydi, hech yo'q bir igna topilsa, deydi. Kechani kecha, ko'chani ko'cha demay izg'ib-sanqigan odam, o'ylaysiz, bekorga yuribdimi? Sira umidini uzmaydi, o'ziga atalganini izlayveradi. Ularga ham bitilgani bor, albatta. Faqat, qaysidir kavakka yashirib qo'yilgan bo'ladi. Gap o'sha kavakni topib, qo'lni cho'zib olishda qolgan, xolos...

Ana, o'zimizning Bozorqo'mlarni oling. Nimaga ularga doim yo'l bo'shatib yashaymiz? Chunki ularni cheksiz hurmat qilamiz. Nimaga hurmat qilamiz? Chunki Bozorqo'mlarning tashvishi katta. To'g'ri, munday o'ylab qaralsa, u katta tashvishining bir uchi aylanib-o'rgilib kelib bola-chaqasining og'ziga va yo'o'zining qorniga ulangan bo'lib chiqadi. Bilamiz, lekin ayb sanamaymiz. Nimaga ayb sanamaymiz? Chunki Bozorqo'mlar katta kishilardir, qorinlari ham katta bo'ladi. Darhol yeng shimarib tirikchilik ketidan tushishlari shundan. Bo'lq'usi Bozorqo'mlarning rizqi zinaga sepilgan bo'ladi. Birinchi zinadagisini terib yeb bo'lganidan keyin ikkinchisiga chiqadi, ikkinchi zinaga ko'proq, uchinchisiga undan ham mo'lroq sepilgan bo'ladi... Tepalagani sari rizqining ko'payayotganini ko'rib, ishtahasi ochilib, yana, yana tepalagisi kelaveradi. Ataylab shunday qilingan, chunki zinaning hamma bosamog'iga don bir xil sepilsa, kim ham tepaga talpinardi.

Piyodalar, aravalar, choychilar, pattachilar, kasallar, burnoqlar, kirachilar, mijozlar... qorinlari kichik bo'lganidan ular "Kichik odamlar" deyiladi. Ularning doni enishga va tobora siyrak sepiladi hansirab izlayveradi, izlagan sari enib boraveradi... Tinim bilmay yeladi, yuguradi, oxiri tevarakni ko'rmay qoladi. Yonginasida tepaga o'rlab ketgan zinani ham, bu zinalardan chopqillab yo sudralib chiqib borayotgan bo'lg'usilarni ham ilg'amay qoladi. Ilg'asa-da, parvo qilmaydi. Zotan, ilg'adi nima, ilg'amadi nima. Burni katagiga qo'ngan pashshani qo'rishga hafsala yo'g'-u, zinaga qaraydими?! U o'zining donini topishi kerak, unga atalgani enishga sepilgan.

Bozor deganlari, o'zi, ayni shu katta-kichik qorinlar uchun chiqarilgan qimirlagan jon bor, to'rt tanga topsam deydi. Bir-birining qo'liga qaraydi, ko'zini alang-jalang qilib, o'ziga atalganini sog'inib axtaradi. O'zinikini yuragi bilan sezadi, shappa tashlanadi, oladi, cho'ntagiga tiqadi, orqasidan ehtiyyot shart jilmayib qo'yadi xijolatlikdan chiqmoqchi bo'ladi go'yo. Omadi chopganlari zina sari chopadi, qolganlar yana enishga yoyiladi.

Kechqurun kattayu kichik hamma uy-uyiga keladi, qarshisiga chopqillab chiqqan bola-chaqasini quchog'iga olib erkelaydi, yonoqlaridan o'padi, ertaklar aytadi. Xotini pishirgan ovqatlarni huzurlanib yeydi, televizor ko'radi, suyaklarini qisirlatib kerishadi, keyin u الخلودي. Uxlaganida xurraklar otadi, totli-totsiz tushlar ko'radi.

Albatta, bu savdolar bari uyg'oqlarga va tirkilarga xos. Uxloq yo'o liklar zararsiz borliqlardir. Ulardan hech kimsaga ziyon yo'q. Hamma qilg'ilik uyg'oqlar va tirkilardan chiqadi. Kulgili. Tiriklikda yo uyg'onishda nima sir bor ekan, deb tagiga yetolmaysiz. Tiriklar va uyg'oqlar o'zlarining odam ekanini unutadi go'yo.

Xullas, g'irt tomosha... "E Odamzod!" deb yuborgingiz keladi.

Bunaqasi ko'rilmagan. Ko'rilgan bo'lsa ham, ko'rganlar allaqachon o'tib ketgan, hozirgilar bilmaydi. Xullas...

...shu dam olamni moshina g'ildiraklarining chiy-chiyi, o'tkir signalarning bip-bipi bosib ketadi. Chala-yarim hushingizga kelasiz. Katta yo'l o'rtasida nimaga va qachon qaqqayib turib qolganiningizni eslamaysiz, bu moshinalar sizni urib yubormaslik uchun qiy-chuvaltib zo'rg'alatdan to'xtatilganini ham anglamaysiz. Haydovchilardan kimi moshinasini ichida o'tirganicha qo'llarini paxsa qilib, kimi oynagidan bosh chiqarib, lekin bari og'ir-og'ir so'zlardan tosh yasab siz tomonga otayotgan bo'ladi. Nima bo'lganini endi sekin ajrata boshlaysiz. Yuragingiz orqaga tortib, chotingizning orasigacha bijirlab ketadi. Ammo garangsib, ildam o'zingizga kelolmaysiz. Chayqalib turaversaz. Bittasi moshinasidan sharfta tushib, ustingizga bostirib kelaveradi. Ursu kerak, deb o'ylaysiz. Lekin himoyaga tayyorlanish xayolingizga kelmaydi, bu holda o'zingizni baribir himoya qila olmas edingiz ham.

Ko'z bormi, odam?! deydi u o'dag'aylab. Lekin urmaydi. Qo'ltig'ingizdan oladi-da, to'xtab turgan moshinalarni oralatib, chekkaga sudraydi. Xudo saqladi, aka. Bo'lmasa, bitta sizni deb, qarang, qancha moshina bir-biriga kirardi. Nima xayol surayotuvdingiz o'zi?..

Indamaysiz. Indayolmaysiz. Ichingizdagilarni qanday tushuntirasiz, axir? Yigit o'zi kuyib, o'zi gapiraveradi:

O'n odimgina nariga borganingizda, davlat ko'rga hassaday qilib atay chiziq tortib qo'yibdi, o'sha chiziqdandan o'tardingiz bu ko'rgilik yo'q edi. Davlat bekorga yo'l chizmaydi, aka, ko'zingizni oching, xo'pmi? deydi va sizni ko'chaning narigi betiga o'tkazib qo'yib, o'zi moshinalar olomoni o'rtasida qolib ketgan uloviga qarab chopadi.

Gulxona panjarasiga suyangancha nafasingizni tekislar ekansiz, birdan ko'zlarining chaqnab ketadi:

Nima dedi? "Odam" dedimi? Ha, shunday dedi! Aniq "Odam" dedi!

Bu so'z qachonlardan buyon birinchi marta ishlatalganini eslaysiz. Zavqningiz qo'ziydi. Hozirgina dahshatli palakatdan zo'rg'a qutulib qolganiningiz ham esingizdan chiqadi. Ko'nglingizni allaqanday surur egallaydi. Miyangiz tiniqlashadi.

Odam! Qanday chiroqli, qanday sog'inchli, qanday yoqimli So'z! Hatto bermalol og'izlarni to'ldirib aytса bo'ladi! Axir, bu ulug'vor unvonga Odam bolasi hartomonlama loyiq. Chunki u eng birinchi galda Odamdir! Odam bo'lib tug'ilgan, Odam bo'lib qolajak! Faqat, buning uchun u o'zini hamisha Odam his etishi, bir-biriga eng oldin Odam o'laroq boqishi, bir-birida eng oldin Odamni ko'rishi kerak. Bundan ortiq ham emas, bundan kam ham emas!..

Mana shunaqa gaplar.

This is not registered version of TotalDocConverter

Bifilsoq, oy qo'ship kelingan, chalakonangiz yoki go'ringizdan shartta otilib ko'chaga chiqqaningiz yaxshi bo'lgan ekan.

Nari-berisi bilan yarim kunda kechgan voqealardan oddiy bir haqiqatni anglab yetasiz.

Ey odamlar, men ham bir odamman, axir! Biz hammamiz odammiz, aziz va mukarram Odam qilib yaratilganmiz! deb hayqirib yuborasiz.

Bu gaplar hushingizga yoqib tushadi, yana bir marta qaytarasiz. Ko'chada yetti yashardan yetmish yashargacha hamma qotadi. Bir muddat angrayib, og'zingizga qarab qoladi. Hatto moshinalar taqa-taq to'xtaydi. Hech kim signal chalmaydi. Birov birovni so'kmaydi, qo'llini paxsa qilmaydi, ochiq chehra bilan yuzingizga termiladi, yana nima derkin, deb og'zingizni poystackdi. Siz esa, unutilgan bu oddiy haqiqatni uchinchi bor baralla takrorlaysiz va... aytgan saringiz, yana aytgingiz kelaveradi. Ovozingizga qo'shilib kayfiyatizingiz ham ko'kkacha yuksaladi go'yo.

Oyoqlaringiz qushday yengil bo'lib qoladi. Dadil va ildam yura boshlaysiz. Qayoqqa borayotganingizning ahamiyati qolmaydi. Uyingiz qayoqdaligining ham endi qizig'i yo'qday sizga. Zotan...

...ilmiy izlanishingiz harholda natija berdi hammasi tushunarli bo'ldi.